

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDAGI SOLIQLAR: KONSTITUTSIYA VA SOLIQ

Suyarov Zokirjon Ergashevich

Ilmiy rahbar, Toshkent Moliya Instituti Andijon Fakulteti katta o'qituvchisi

Ro'zimboyev Omadbek Qudratjon o'gli

Toshkent Moliya Instituti Andijon fakulteti talabasi

Toshkent Moliya Instituti Andijon Fakulteti

Annotatsiya

Ushbu maqolada mamlakatimizda amalga oshirilayotgan soliq sohasidagi islohotlar va bu islohotlarning davlat va jamiyat hayotidagi ahamiyati tahlil qilingan.

Ushbu maqolada, shuningdek mamlakatimizda amalga oshrilishi rejallashtirilayotgan konstitutyaviy islohotlarga ko'ra soliq sohasida va soliqchilik bilan bog'liq qonunchilikda kutulayotgan yangiliklar va ularning ahamiyati tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Soliq, Qonunchilik, Konstitutsiya, Soliqodeksi, Yig'imlar, Jamiyat,

Davlat, Soliq to'lovchilar

Xar bir davlat o'z istiqlol va rivojlanish yo'lini tanlab olar ekan, xalq farovonligini ta'minlashga xizmat qiladigan eng muhim maqsad va vazifalarini o'zini Konstitutsiyasi – Asosiy qonunida mistahkamlab oladi. Binobarin, o'z halqini hohish-irodasi, dili va tilidagi ezgu niyyatlariga hamohang og'ishmasdan, doimo olg'a intilib boradi. Malumki har-bir davlatniing taraqqiyoti mamlakatda soliq qonunchiligining qay tarzda adolatli va to'g'ri yo'lga qo'yilganligi bilan bog'liq bo'ladi. Shu nuqtai nazardan kelib chiqib yangilanayotgan konstitutsiyaviy loyihada soliq va yig'imlar adolatli bo'lishi kerakligi belgilab qo'yilganligi juda katta ijtimoiy iqtisodiy siyosiy ahamiyatga ega voqeylek hisoblanadi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsyaning 63–moddasiga asosan, "Soliq va yig'imlar adolatli bo'lishi hamda fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlarini amalga oshirishiga to'sqinlik qilmasligi kerak"ligi qatiy belgilab qo'yilganligi katta ahamiyatga ega.

Soliqlar davlat daromadlari tarkibida eng salmoqli o'rinni egallaydi. Soliqlar va yig'implarni joriy etishda yoki ularni oshirishda soliq to'lovchilarning iqtisodiy ahvoli va mulkiy manfaatlariadolatli tarzda e'tiborga olinishi va muhofaza etilishi zarurligi yangi konstitutsiyaviy loyihada o'z ifodasini topgan. Bu esa soliq va yig'implarning mamlakat ijtimoiy taraqqiyotidagi va jamiyat ehtiyojlarini qondirish uchun muhim manba ekanligini ko'rsatadi.

Iqtisodiy ahvoli turlicha bo'lgan soliq to'lovchilar uchun tabaqlashtirilgan soliq solishni belgilash kamsitish hisoblanmaydi, ya'ni iqtisodiy va boshqa kamsitmaydigan asoslar bo'yicha farqlashga yo'l qo'yiladi.

Masalan, nogironligi bo'lgan shaxslar, o'zini-o'zi band qilgan aholi uchun soliq imtiyozlarining belgilangani. Bolalikdan nogironligi bo'lgan shaxslar uchun daromad solig'i bo'yicha belgilangan imtiyoz mehnatga haq to'lashning eng kam miqdori 1,41 baravaridan 3 baravarigacha oshirildi. Shu qatorida, o'zini o'zi band qilgan shaxslar ijtimoiy soliqni bazaviy hisoblash miqdorining kamida 50 foizi hajmida to'laydi.

Soliq kodeksidagi mazkur imtiyozdan 2022-yilning 11 oyida 3 126 ta korxonada 18,9 mlrd.so'm foydalangan.

Xuddi shunday, Soliq kodeksning 408-moddasiga asosan mehnat stajiga ega bo'lishi uchun o'tgan 2022-yil davomida 330,8 ming nafar o'zini o'zi band qilgan jismoniy shaxslar tomonidan 85,9 mlrd.so'm ijtimoiy soliq to'lovi amalga oshirilgan.

Mazkur normaning kiritilishi barcha soliq to'lovchilarning qonun oldida tengligini ta'minlashga, ijtimoiyadolat prinsipining qaror topishiga, soliqlarni yig'ish darajasining oshishiga, tadbirkorlik faoliyatini yanada qo'llab-quvvatlashga xizmat qiladi.

Tarixga nazar solsak, asrlar davomida shakillangan ma'naviy-axloqiy qadryatlar va insonning tabiiy huquqlari sivilizatsiya jarayonlari natijasida Konstitutsiya shakliga kelganini ko'ramiz.

Bosh qomusimiz, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijyimoiy kelib chiqishidan qat'iy nazar, yurtimiz fuqarolarining tengligining kafolatlanishi e'tirof etdi va zamonaviy demokratik taraqqiyot uchun zamin yaratdi.

Xech kimga sir emas, turli sohalarda bo'lgani kabi biznes va tadbirkorlikni qo'llab quvvatlash, soliq to'lash kabi masalalarni hal etishda "qonunni chetlab o'tish" bizning sharoitimidza yomon bir odatga aylanib qolgan edi.

Shu yilning o'zida xalq farovonligi yo'lida 70 dan ortiq qonun, 350 dan ziyod Prezident farmoni va qarorlari qabul qilindi. Ilg'or xorijiy tajriba hamda sinalgan amaliyot asosida mamlakatimizda milliy soliq tizimi yaratildi. Soliqlar soni va stavkalar optimallashtirildi.

2020 yil 1 yanvardan yangi taxrirdagi soliq kodeksi amaliyotga tadbiq etildi. Bu isloxtlardan asosiy maqsad – joriy va kelgusi yillarda iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashdir.

Qulay tadbirkorlik muhitini yaratishda zarur bo'lgan jihatlar, imtiyoz va preferensiyalar yangi tahrirdagi soliq kodeksida ham o'z aksini topgan unda tadbirkorlar faoliyatidagi muammolarni qonuniy hal etishga qaratilgan.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 14 - moddasida Davlat o'z faoliyatining inson va jamiyat farovonligini ko'zlab, ijtimoiy adolat va qonuniylik prinsiplari asosida amalga oshishi belgilab qo'yilgan.

Shu nuqtaiy nazardan kelib chiqqan holda yangi tahrirdagi soliq kodeksida soliq o'rgani va soliq to'lo'vchi o'rtasida hamkorlik o'rnatish ular o'rtasida tenglik va adolatni shakillantirishda katta e'tibor berilgan. Jumladan:

- Soliq o'rganlarining soliq to'lo'vchining soliq qarzdorlarining ularning debitorlari hisobidan undurish huquqi rad etildi.
- Soliq o'rganlarining ortiqcha to'langan yoki ortiqcha undirilgan soliqlarni o'z vaqtida qaytarib bermaslik uchun javobgarlik kuchaytiriladi. Ortiqcha undurilgan soliq va moliyaviy sanksiyalar ushbu summalarini yig'ishdagi (to'lashdagi) davrda amalda bo'lgan Markaziy Bankning qayta moliyalash stavkasi asosida hisoblangan foizlarni hisobga olgan holda qaytarib beriladi.

Huddi shunga ko'ra ortiqcha to'langan soliq miqdorini o'z vaqtida qaytarish va ortiqcha yig'ilgan soliq summasini hisobga olish (qaytarish) mehanizimini joriy etilmoqda. Shu bilan bir qatorda, soliq qaytarishning xar-bir kechiktirilgan kuni uchun soliq o'rgani tomonidan soliq to'lo'vchiga qo'shimcha foizlarni to'lash nazarda tutiladi.

Soliq o'rganlariga hatarlarini tahlil etish asosida kameral soliq tekshiruvlari, sayyor tekshiruvchilar va audit tekshiruvchilarini tayinlash huquqini beradigan soliq nazoratini o'tkazishning yangi tartibi nazarda tutilgan.

Bundan buyon soliqlardan qochish hafi katta deb hisoblangan soliq to'lo'vchidangina to'g'ridan to'g'ri soliq tekshiruvi o'tkazilishi mumkin.

Soliq tekshiruvlari soliq o'rganlari tomonidan Soliq Kodeksida nazarda tutilgan va ularni o'tkazish tartibiga soluvchi normative huquqiy hujjatlar qabul qilinganlida keyingina o'tkazilishi lozim. Xususan, Soliq Kodeksi soliq tekshiruvchilarning quyidagi turlarini nazarda tutadi:

1) Kameral soliq tekshiruvi (soliq to'lo'vchilarini hisobotini soliq o'rganlarida o'rganish va uni bojhona o'rganlari banklar, energiya korhonalar, kадaster va boshqalar ma'lumoti bilan taqqoslash) natijasiga ko'ra soliq to'lo'vchi soliq hisobotiga tuzatishlar kiritishi yoki asoslangan dalillar keltirishi zarur deb hisoblanadi.

Kameral soliq tekshiruvini o'tkazish asosan soliq o'rganini raxbarining (raxbar o'rindbosarlarining) buyrug'i bilan qabul qilinishi kerak. Shu bilan birga, soliq tekshiruvini o'tkazish jarayonida soliq o'rganining mansabdor shaxslari soliqni soliq to'lo'vchidan to'g'ri hisoblanganligini tasdiqlo'vchi zaruriy hujjatlarni talab qilish huquqi beriladi.

Soliq tekshiruvi natijalariga ko'ra moliyaviy sanksiyalar qo'llanilmaydi ammo peniyalar undurilishi mumkin.

2) Sayyor soliq tekshiruvi – dalillarni qayd etishdan iborat bo'lgan soliq tekshiruvi (soliq to'lo'vchining alohida ko'rsatkichlarini joyiga borib o'rganish) soliqlar va yig'imlarni hisoblash va to'lash, Shuningdek bosqacha qilib aytganda majburiyatlar to'g'risida ma'lumot to'plash uchun joylarda joriy etiladi.

Sayyor soliq tekshiruvi natijalariga ko'ra soliqlar qo'shimcha miqdorda hisoblanmaydi.

3) Soliq audit – salmoqli ayriboshlashga ega soliq to'lo'vchining katta tavakkalchilik mavjud hollarda soliq to'lo'vchi tomonidan soliq qonunlariga rioya etilishini har tomonlama o'rganish. Soliq audit soliq to'lo'vchilarning soliq to'lashdan bo'yin tov lash haflarini tahlil qilish asosida o'tkazib boriladi.

Soliq autidi natijalariga ko'ra qo'shimcha soliq undurilishi va moliyaviy sanksiyalar qo'llanilishi mumkin.

Shu bilan birga 2022 yil 1-yanvargacha, soliq o'rganlari soliq auditini tayinlashda tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfatlari himoya qilish to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Vakolatli shaxsga xabar berilishi to'g'risida tartib joriy etildi.

Soliq bo'yicha nizolarni sudgacha hal etish tartibi tayinlandi va shuningdek soliq huquqbazarlarini turiga javobgarlik choralar belgilanadi.

Bunda soliq o'rgani sayyor soliq tekshiruvlari va soliq auditini natijalari bo'yicha qabul qilingan qarorlarni ustidan sud tartibida shikoyat qilinishi faqat yuqori soliq o'rganiga shikoyat qilinganidan keyingina amalga oshirilishi mumkin.

Shuningdek, Soliq Kodeksga muvofiq soliqlarni to'lashnii ta'minlashning yangi vositalari, ma'lum to'lo'vlar evaziga kollegial o'rganlar (komissiyalar) ishtirokisiz soliqlarni kechiktirish yoki bo'lgan holda to'lash tartibi joriy e'tilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksi yangi tahrirda 2020-yil 1-yanvaridan keyin soliq imtiyozlari faqat Soliq Kodeksida berilishi mumkinligi ko'zda tutilgan. Shu bilan bir qatorda boshqa bir soliqlar bo'yicha imtiyozlar, qo'shilgan qiymat solig'i, aksiz to'lanadigan tovarlarni ishlab chiqarish va (yoki) sotish bo'yicha aksiz solig'i va yer osti boyliklaridan foydalanish soliqlari bo'yicha belgilab qo'yilgan soliq stavkasini ko'pi bilan uch yildan oshmagan muddat oralig'ida ellik foizga kamaytirish faqat O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlariga asosan qo'llaniladi.

Qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha imtiyozlar, shu jumladan O'zbekiston Respublikasi hududida olib krilgan (import etilganida), soliq solishdan ozod qilingan mablag'larni maqsadlariga yo'naltirilishi shart bilan berilmaydi.

Ko'pdan buyon kutilgan, hayotning o'zi talab etayotgan bu o'zgarishlar soliq o'rganlari va soliq to'lo'vchilarining davlat va jamiyat vazifalarini bajarishga doir konstitutsiyaviy huquq va majburiyatlarini amalga oshirishning ta'sirchan mexanizimi bo'lib xizmat qiladi.

Zero, soliq o'rganlari va soliq to'lo'vchilar o'rtaсидаги munosabatlar qanchalik yaxshi darajda bo'lsa jamiyatimiz rivojlanishi uchun kichik bo'lsada yordam beradi. Soliq to'lo'vchilar asosan soliq to'lashdan qochmasdan uni o'z vaqtida va minnador bo'lib nima uchun to'layotganini bilsa bu o'z hissasini qo'shish hisoblanadi.

Foydalanilgan abbiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Konsitutsiya (2017-yil)
2. <https://meningkonstitutsiyam.uz/instruction/44>
3. O'zbekiston Respublikasi prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasi 2020-yil 24-yanvar.